

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

141- Psixologiya guruh talabasi Xasanova Umida Ozodovnaning

5210200- Psixologiya ta'lim yo`nalishi

bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarini
tanlash”**

Ilmiy rahbar:

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

katta o'qituvchisi Adamova.O'.K.

Urganch, 2018- yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1.BOB. Maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarning o'ziga xos jihatlari.....	11
1.1. Maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlarning mazmuni.....	11
1.2 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda korreksion metodlarining mohiyati.....	16
Birinchi bobga xulosa.....	19
2.BOB. Maktabgacha yosh davrida bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar shakl va metodlarining tahlili.....	21
2.1. Maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish va korreksion yo'naltirish.....	21
2.2. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ish shakl va usullarning tahlili.....	35
Ikkinchi bobga xulosa.....	43
Xulosa.....	44
Tavsiyalar.....	46
Adabiyotlar.....	47
Ilovalar.....	51

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:

2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muaassasadir. SHu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator

kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti. Aytish kerakki, bu o'ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning doimiy e'tiborida bo'lmoqda. 2017 yil 9 sentyabr kuni qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir. Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTMLar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai-nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan [10.b.17]. Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilishi ham sohada o'ziga xos yangilik,

deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo'sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l haritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda faqatgina uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashgina emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish nazarda tutilgan. Pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi, xususan defektologiya sohasi ham bundan istisno emas. Har bir bolani uning rivojlanishda nuqsonlar kuzatilgan taqdirda maktabgacha yoshdanoq ta'lim shaklini to'g'ri tanlash, yakka ta'sir vositalarini aniqlash uchun chuqur psixologik-pedagogik o'rganish zarurligini ko'rsatadi. SHuningdek, hozirgi zamon maxsus pedagogika va psixologiyasida bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni,

nuqsonlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishning zarurligi haqidagi fikrlar ta'kidlanmoqda [13.b.25].

Bunda alohida ahamiyat maktabgacha ta'lim muassasalari defektologlari, logopedlari bu toifadagi bolalar bilan ishlashga tayyorlash, ularda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hamda zarur bo'lgan psixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish ishlarini bilishlari muhimdir. Bolalarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga maqbul bo'lgan ta'lim turini tanlash, ota-onalarga maslahatlar berish ishlarini maqsadga yo'naltirilgan va malakali ravishda olib borish zarur. SHularga bog'liq ravishda psixik va jismoniy rivojlanishida, xususan nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni differentsial psixologik-pedagogik tashxis qilish ko'p jihatdan defektolog – kadrlarni, logopedlarni sifatli qilib tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgachagacha ta'lim tizimiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish;

- davlatimiz rahbarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzalarida ta'lim tizimini modernizatsiyalash bilan bog'liq vazifalarni amaliyotga tatbiq etish malakalariga ega bo'lishi lozim.

- maktabgachagacha ta'limning kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonlariga milliy manfaat nuqtai nazaridan normativ-huquqiy hujjatlar asosida xulosalar chiqara olish kompetentsiyalariga ega bo'lishi lozim.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olishga va bajarishga har bir ongli, fidoiy, o'z vatani ravnaqi yo'lida halol mehnat qilishni niyat qilgan, iqtisodiy islohatlar mohiyatini teran anglagan sog'lom fikrli insoni sharaflil masalalarni amalga oshirishga yo'naltiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar mahkamasining qarorlarini o'z vaqtida bajarish davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan har bir o'quv fanining har tomonlama mukammal o'qitishda maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va

metodlarini tanlagan holda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning nutqi, tafakkuri va aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etib, ularni sog'lom va baquvvat tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni teran anglagan holda, bitiruv malakaviy ish mavzusini ham yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib tanlab oldik. Shuning uchun ham bitiruv malakaviy ish mazusi dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Olimlardan K.S. Lebedinskaya, G.P. Berton, Ye.M. Dunaeva, va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatlarini (U.Fayzieva "Alifbe", "Nutq o'stirish", N. Dadaxo'jaeva "Matematika", N.SH. Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxo'jaeva, U.YU.Fayzieva, N.H.Dadaxo'jaeva, F.U.Qodirova, . H. M. Gaynutdinovning " O'zbekiston sharoitida karlarning kasbiy - mehnat va ijtimoiy moslashuvlari", F.J.Alimxodjaevaning " CHuqur nutq kamchiliklariga ega bo'lgan zaif eshituvchi o'quvchilar nutqiy eshitishlarini rivojlantirish jarayonida didaktik materiallarning roli " (1992 y.), F.U.Qodirova "Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar so'zlashuv nutqini shakllantirish" (2006 y.), U.YU.Fayzieva, N. X. Dadaxo'jaeva "Zaif eshituvchi o'quvchilarni ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarga o'rgatish metodikasi" (1995y), N.Ismoilova, G.Solihova, R.Dushanov, M.Nazarova va boshqalar o'z tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rgangan bo'lsalar ham ammo bu olimlarning ilmiy ishlarida va tadqiqotlarida rivojlanishida me'yordan chetlashgan, shu jumladan nutqiy kamchilikli, aqlan zaif, turli asoratlar bilan orqada qolgan bolalar psixikasi tuzilishi o'rganilib kelinayapdi va bu jarayon hali davom etmoqda. Maxsus psixologiya asoschilaridan biri L.S.Vigotskiyning nazariy qoidalariga muvofiq bolada birlamchi nuqson va ikkilamchi asoratlarni ajrata bilish kerak. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga po'stloq faoliyatining to'laqonli emasligi, mo'ljalga olish faoliyatining bo'shligi, nerv jarayonlarining inertligi, himoya tormozlanishiga ortiqcha moyillik xosdir. Oligofren bolalar psixik faoliyatida aniq aks etgan kamchiliklar bilan birga bu bolalarga rivojlanish jarayoni

asosi bo'lib xizmat qiluvchi ayrim ijobiy imkoniyatlar ham xos. Tarbiyachilar maxsus rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabgacha ta'limda korreksion ishni tashkil qilib aynan shu imkoniyatlarga tayanadilar. XX asrning 90-yillaridan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruhga bo'ladilar: yengil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Ona qornida rivojlanish davrida, tug'riq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari ma'lum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta ro'l o'ynaydi. Bir qator hollarda aqli zaiflik tayanch-harakat tizimi buzilishlari bilan, autizm bilan birlashadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, murakkab nuqsonlar irsiy kelib chiqishga ega. Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanishi yo'nalishini tormozlaydi, nuqsonlarni korrektsiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni sezilarli qiyinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvaffaqiyatli ish olib borish e'tibor va keng bilim doirasiga ega bo'lishni talab qiladi. Maxsus psixologiya boshqa fanlar singari turli fanlar bilan uzviy bog'liq. Maxsus pedagogika, psixiatriya, fiziologiya, logopediya, umumiy va bolalar psixologiyasi va boshqa fanlar shular jumlasiga kiradi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatining o'ziga xosligi yuqorida ko'rsatilgan fan yutuqlarining natijalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini hisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o'taydi. Ammo, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar taraqqiyoti o'ziga xos yo'sinda amalga oshadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi umumiy va ijtimoiy psixologiya ma'lumotlariga asoslanib ish yuritadi.

Bularning barchasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola ruhiyatining nuqsoni haqidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi, markaziy asab tizimining egiluvchanligi haqida I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotiga asoslanadi [36.b.64]. Nafaqat rivojlanishida kamchiligi bor bolalar balki, sog'lom bolalarda ham korrektsiyaga ehtiyoj seziladigan holatlar

uchraydi. Bunday bolalar bilan ham korrektsion ish shakl va metodlarini to'g'ri tanlash va o'z vaqtida tezkor ish olib borish nihoyatda muhim. YUqorida qayd etilgan fikrlarga muvofiq holda bitiruv-malakaviy ishning ilmiy va amaliy jihatdan keng yoritib berish maqsadida qator ilmiy risolalar, ilmiy tadqiqotlarni o'rganib chiqdik va bitiruv-malakaviy ishning maqsad va vazifalarini belgilab oldik.

Tadqiqotning maqsadi: Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlarining mazmun, mohiyatini to'la ochib berish; maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida meyordan chetlashgan, shu jumladan nutqida kamchiligi bor bo'lgan bolalar psixikasidagi o'zgarishlarni korrektsiya qilish; korrektsion shakl va metodlarining tuzilishini o'rganish va tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlar haqidagi nazariy ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish.
2. Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlarini tanlash jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.
3. Maktabgacha yosh davridagi bolalar o'rtasida so'rovlar olib borish, so'rovnoma orqali olingan ma'lumotlarini tahlil qilish va emperik ma'lumotlar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlar haqidagi bilim va tasavvurlarini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlarga oid bilim va tasavvurlarini rivojlantirish shakl, vosita va usullari

Tadqiqot metodlari: Korrektsion mashg'ulotlar; usul va metodlar, SWOT tahlili, FSMU, suhbat, so'rovnoma, test va treninglar.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning sog'lom avlodni tarbiyalash xususidagi asarlari, g'oyalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, shuningdek N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika", Xasanboeva O.U. va boshqalar "Maktabgacha ta'lim pedagogika", Sodiqova. SH.A "Maktabgacha pedagogika", Yusupova P. „Maktabgacha tarbiya pedagogika“, Nishonova Z.T., Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va Psixodiagnostikasi", Nishonova Z.T. "Psixologik xizmat" faning nazariy metodologik ma'lumotlari va g'oyalari tashkil qildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Rejalashtirgan tadqiqotimizni olib borish jarayonida qator amaliy va nazariy natijalarga erishishni mo'ljal qilganmiz:

- 1.Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlariga oid ma'lumotlarni umumlashtirish;
- 2.Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlarining namoyon bo'lish ko'rinishlarini aniqlash;
- 3.Maktabgacha yosh davrida korrektsion shakl va metodlarini o'rganish asosida tavsiyalar ishlab chiqish va tadbirlar rejasini tuzish;

Tajribalarimiz Xonqa pedagogika va sport kasb-hunar kolleji psixologi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasasida olib borildi, so'rovnoma va testlar o'tkazildi va natijalar tahlil qilindi.

Bitiruv-malakaviy ishininig tuzilishi va hajmi 56 bet, 11 890 so'zdan iborat bo'lib, Ish kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1.BOB. Maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarning o'ziga xos jihatlari

1.1. Maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlarning mazmuni

Bolalarni tibbiy-pedagogik komissiyada tekshirish ularning hujjatlarini o'rganishdan boshlanadi (tibbiy kartalar, karakteristikalar, daftarlar, chizgan rasmlari va h.k.). Shifokor psixonevrolog komissiya a'zolarini mavjud bo'lgan hujjatlar: anamnez, otolaringolog, oftalmolog, pediatrianing xulosalari, laborator ma'lumotlar va boshqalar bilan tanishtiradi. Bolada eshitish yoki ko'rishning pasayganligi kuzatilsa unga diqqatini qaratadi va hokazo. Bunday hollarda psixolog-defektolog oldindan tekshirish uchun material tanlaydi. Masalan, eshitish pasayganda, nutq nuqsonlarida bolalarga nutqiy ko'rsatmalar talab qilinmaydigan ko'rgazmali harakterdagi topshiriqlar beriladi. Zaif ko'ruvchi bolalar uchun og'zaki shakldagi turlicha mantiqiy topshiriqlar tanlanadi. Psixolog va defektolog o'z navbatida pedagogik hujjatlar bilan tanishib, komissiya a'zolariga bola bilan aloqaga kirishishda va tekshirish jarayonida e'tibor berishi lozim bo'lgan eng muhim xususiyatlar haqida ma'lumot beradi. Masalan, bolaga berilgan tavsifnomada o'quv dasturini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari ko'rsatilgan bo'lsa, tekshirishni bola uchun oson va qiziqarli bo'lgan o'yin harakteridagi topshiriqlardan boshlash mumkin. Tavsifnoma materiallarini o'rganish komissiya a'zolarini bolaning holatini harakterlab beradigan psixik faoliyatning sifat va xususiyatlarini aniqlashga yo'naltiradi. Agarda bola maktabda o'qigan bo'lsa, uning daftarlarini diqqat bilan tahlil qilish zarur. Daftarning tashqi ko'rinishi boladagi betartiblik, maktab talablarini tushunish, ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqish kabi sifatlar haqida ma'lumotlar beradi. YOzma ishlarni bajarish harakteri tekshiruvchiga boladagi qiyinchiliklar sababi haqidagi masalani qo'yadi. (Masalan, yozishda qatorga rioya qilmaslik motorikaning buzilishi yoki fazoda chamalash qiyinchiliklari, talablarini tushunmaslik kabi va boshqa sabablarga bog'liqdir). YOzuvdagi xatolar (harflarni o'rnini almashtirish, tashlab ketish, so'zlarni oxirigacha yozmaslik, jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirish) ham turli

sabablardan kelib chiqadi. Bola bunday qiyinchiliklarni qanday yengib o'tdi, o'qituvchi tomonidan qanday va qay darajada yordam berilganligini aniqlash muhimdir. Birinchi va oxirgi daftarlarni taqqoslab bolaning rivojlanish dinamikasini o'rganish mumkin. Bola haqida qiziqarli ma'lumotlarni u chizgan rasmlardan ham bilib olish mumkin. Ba'zan aynan rasm u yoki bu psixik o'zgarish haqidagi dastlabki signal bo'ladi. Bolaning hujjatlaridagi barcha materiallar sinchiklab o'rganilganidan so'ngina bolani bevosita tekshirishni boshlaydilar. Biz tibbiy tekshirish metodlarini yoritib bermaymiz, chunki bu bilan faqatgina mutaxassis shifokorlar shug'ullanadilar. Barcha komissiya a'zolari shifokorning ota-onalar bilan suhbatini eshitadilar, bolaning ilk rivojlanishiga diqqatlarini qaratadilar, shifokor tomonidan bolani nevrologik va psixologik tekshirish kuzatadilar, ammo ularning asosiy vazifasi bolalarni tegishli metodikalar yordamida psixologik, pedagogik va logopedik tekshirishdir. SHuni esda tutish lozimki, umumiy psixologiyaning bolalarni o'rganishdagi individual-tipologik, shaxs-jamiyat, tizimli-tuzilish yondoshishlari, sifat-sonli baholash kabi nizomlari rivojlanishda turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'rganishda ham zarur hisoblanadi. U yoki bu metodlarni va ularning ketma-ketligini tanlash tekshiruvchining yosh va individual xususiyatlariga bog'liq. Ba'zi hollarda komissiya a'zosi (oligofrenopedagog, logoped) suhbat metodiga tayanadi, unga alohida eksperimental metodikalarni qo'shadi.

Boshqa hollarda esa o'rganish o'yin jarayonida bola faoliyatini kuzatish asosida olib boriladi va h.k. Tekshirishga bolaning ko'rsatilgan usullarni faoliyatiga ko'chira olish qobiliyati namoyon bo'ladigan o'qish elementlarini, yordam turlarini, o'xshash harakterdaga topshiriqlarni ham kiritish lozim. Topshiriqlar verbal va noverbal harakterda bo'lishi lozim. Bolani tekshirishda quydagilarni e'tiborga olish zarur: bolaning tekshirishga bo'lgan hissiy reaksiyasini. Hayajonlanish yangi sharoitga, notanish odamlarga bo'lgan tabiiy reaksiyadir. Bunda haddan tashqari, quvnoqlik, komissiya a'zolariga murojat qilishdagi beodoblik, xulqning noadekvatligiga diqqatni qaratish lozim. Bola ko'rsatmani

nihoyasigacha eshitadimi yoki uni bajarishdan avval tushunishga harakat qiladimi? Qanday turdagi: og'zaki yoki ko'rgazma asosidagi ko'rsatmalar tushunarlimi Topshiriqni bajarishdagi faoliyatning harakteri. Topshiriqqa bo'lgan qiziqishning mavjudligi va turg'unligi, bola faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, ishni oxiriga yetkazish ko'nikmalari. Bunda harakat usullarining samaraliligi va mosligiga, ish jarayonida diqqatni bir joyga to'play olishiga ahamiyat berish lozim. Bolaning umumiy ish qobiliyati e'tiborga olinadi. Asosiy ko'rsatkichlardan biri-yordamdan foydalana olish imkoniyatidir [16.b.37]. Bunday qobiliyat qanchalik yaxshi ifodalangan bo'lsa, bolaning o'rganishi shunchalik yuqori bo'ladi. Bolaga ko'rsatiladigan yordamning harakteri va darajasini e'tiborga olish muhim. Bolani o'qitish, ta'lim olishi, o'rganishining ko'rsatkichi bo'lib o'zlashtirilgan faoliyat usulini o'xshash topshiriqqa ko'chira olishi xizmat qiladi. Ishning natijasiga bo'lgan munosabat (reaksiya). O'z faoliyatini tanqidiy baholash, adekvat hissiy reaksiyalar (muvaffaqiyatdan xursand bo'lish, muvaffiqiyatsizlikdan ranjish) bolaning holatini to'g'ri tushunganligidan dalolat beradi.

Xotira, diqqat jarayonlarini, shuningdek, eshitish, ko'rish, nutqini rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni sinchiklab tahlil qilish muhimdir. Bolaning intellektual rivojlanishi haqida xulosani yuqorida ko'rsatilgan barcha harakteristikalar asosida chiqarish mumkin. Tekshirin vaqtida intellektual jihatdan me'yorida bo'lgan bolalar xulqi normada, jiddiy, harakatchan bo'ladilar. Ular topshiriqlarni bajarish jarayoni, ishning natijasi va uning bahosi bilan qiziqadilar. Intellektual jihatdan normada bo'lgan bolalar uchun yuqorida ko'rsatilgan topshiriqlarning barchasi qiyinchilik tug'dirmaydi. Tabiiyki, 7 yoshdagi bolalar 8-9 yoshdagi bolalarga qaraganda qiyinchiliklarda ko'proq tashkiliy yordamga muhtoj bo'ladilar. Agarda tekshirishga xulqi buzilgan bolalar yuborilgan bo'lsa, uning intellektual rivojlanishni optimal sharoitdagina to'g'ri baholash mumkin: masalan, yaxshi aloqa o'rnatishda va ahamiyatli motivasiyada. Bolaning javoblarini sifati uning xulqidagi buzilishlar bilan qanchalik bog'langanligini tushunish uchun uning kontaktga kirishgunga qadar va kontaktdan keyingi erishgan natijalarini solishtirish maqsadga

muvofiqdir. Agarda bolaning javoblarining sifati va sur'ati yaxshilansa yoki yomonlashsa, tekshirishning oxiri yoki o'rtasida o'zgarsa, bu bolaning ishlash qobiliyatining buzilishi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ko'rsatkichlarni bolaning toliqishi yoki, ishga kirishib ketishi bilan bog'lab tahlil qilish lozim. Ishlash qobiliyatining pasayishini intellekti turli darajadagi bolalarda kuzatish mumkin. SHuning uchun tekshirishning boshidagi, oxiridagi dam olishdan keyin topshiriqlarning bajarilishi sifatini taqqoslash muhimdir.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning ko'pchiligi uchun tekshirish jarayonida ish qobiliyatining va diqqatining pasayishi harakterlidir. Ba'zi bolalarda yangi materialda orientirlashning, ishlab ketishning, faoliyatning umumiy sur'atini sekinlashganligi kuzatiladi. Boshqalarida tez toliqishlari sababli diqqatining pasayishi, faoliyat jarayonida diqqatning tarqalishi aniqlanadi. Psihik rivojlanishi sustlashgan bolalarning faoliyati normal rivojlanayotgan bolalar faoliyatiga nisbatan yetirlicha maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'pincha ular o'z maqsadini tushuntira oladilar, topshiriq noto'g'ri bajarilganda ham javoblarini asoslab bera oladilar. Faol lug'atlari ko'p bo'lmaydi. Psihik rivojlanishi sustlashgan bolaga tashkiliy va o'rgatuvchi yordam berilsa, ular tomonidan bajarilgan topshiriqlarning sifati normal bolalarnikiga yaqinlashadi. Debil darajadagi aqli zaif bolalarning intellektual faoliyati orientirlashning sekinlashganligi, inertlik, umumlashtirishlarning yo'qligi bilan harakterlanadi. Debil bolalarning tevarakatrof haqidagi tushunchalari juda tor va yuzaki bo'ladi. Bolalar asosiy ranglarni va geometrik shakllarni biladilar, kesma rasmlarni joylashtiradilar, yordam berilganda koos kubiklaridan oddiy naqshlarni tuza oladilar. Qisman yordam berilganda konkret amaliy vaziyat (xolatni) tahlil qila oladilar, voqeaband rasmning ma'nosini tushunadilar, rasmlarning murakkab bo'lmagan ketma-ketligini ko'rsata oladilar.

Debil bolalar sodda hikoyalarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar. Bunday bolalar uchun bajarishda vaziyat (holatning) ma'nosini tushunish lozim bo'lgan topshiriqlar qiyinchilik tug'diradi. Debil bolalar keng xajmdagi ko'p tushunchalarga ega emaslar. Tushunchalari voqelikni aks ettirmaydi, ko'p

tushunchalari differensiallashmagan va juda konkret harakterga ega bo'ladi. YAngi materialni o'zlashtirishda va ish metodni boshqa o'xshash topshiriqqa ko'chirishda debil bolalarda psixik jarayonlarning inertligi va tafakkurining yaqqolligi yorqin namoyon bo'ladi. Fikrlash operasialarini bajarishda bunday bolalar ko'pincha asosiy bo'lmagan tashqi belgilarga tayanadilar. Qiynchilik tug'dirgan topshiriqlarni bajarishda tashkiliy yordam ahamiyatga ega bo'lmaydi. O'rgatish o'qitish harakterdagi yordam juda sekinlik bilan qabul qilinadi, yomon o'zlashtiriladi va o'xshash topshiriqni bajarishda deyarli foydalanilmaydi. Debil bolalarni uzoqroq o'qitish lozim! Bundan tashqari takrorlashlarni ko'p o'tkazish kerak. Aqli zaiflikning imbesil darajasidan bolalarda tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari juda kambag'al bo'ladi. Tushunchalari o'zi va yaqinlari haqidagi elementar ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Ba'zi imbesil bolalar asosiy ranglarni, ba'zi geometrik shakllarni biladilar. Ular rasmdagi va qisqa hikoyadagi oddiy aniq vaziyatning ma'nosini tushunadilar. SHu bilan birgalikda imbesil bolalar umumiy tushunchalarga ega bo'lmaydilar. Lug'at boyliklari tanish bo'lmagan predmetlar doirasi bilan chegaralangan bo'ladi. Bolalar o'zlariga yoqqan topshiriqdan boshqasiga qiyinchilik bilan o'tadilar. Psixomotor yoki analitik-adinamik buzilishlari bo'lgan imbesil bolalarning berilgan topshiriqqa diqqatini jalb etish va bajarishni tashkil etish juda qiyin. Organik yoki shizofrenik demensiyasi bo'lgan bolalarda faoliyatning perseverasiyali buzilishlari, hissiy-idoraviy doiraning torligi, tanqidiy yondoshmaslik, psixik faollikning rivojlanmaganligi kuzatiladi. Epileptik demensiyali bolalar uchun tafakkurning inertligi harakterlidir. Bolalar ko'rsatmani sekinlik bilan o'zlashtiradilar, bir ish turidan ikkinchisiga juda qiyinchilik bilan o'tadilar. Intellektual faoliyatni bajarish vaqtida detallashtirish, muhim bo'lmagan tomonlariga e'tiborni jalb etish va ikkilamchilardan asosiysini ajratib olishda qiyinchiliklar kuzatiladi. SHizofrenik demensiyali bolalar qiyinchilik bilan aloqaga kirishadilar, ularda hissiy reaksiyalarning noadekvatligi namoyon bo'ladi. Ularning fikrlashi ko'p hollarda formal, ko'rgazma harakterida bo'ladi. Bayon qilingan fikr-mulohazalari paradoksal (qarama-qarshi) harakterga egadir. Ko'p hollarda bunday bolalarga ko'rgazmali va konkret material bilan ishlash qiyindir.

Ko'rish pasaygan bolalarda intellektning saqlanganini odatda tafakkurning rivojlanish darajasini bilish maqsadida berilgan turli topshiriqlarning bajarish harakterini tashkil qilish jarayonida aniqlanadi. Bunda bolalarga shunday topshiriqlar beriladiki, ularni bajarishda bolalar ko'rishga emas, balki nutq, eishtish va sezishga tayanadilar. Ko'rishning pasayishi tufayli bunday bolalarda ko'rish idroki rivojlanmagan va fazoda orientirlash (mo'ljallash) buzilgan bo'ladi. Eshitishi pasaygan bolalarda fikrlash faoliyatida so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanmaganligi bilan bog'liq buzilishlar kuzatiladi. Bolalar ko'rgazmali kombinasiyalash bo'yicha topshiriqlarni yaxshi bajaradilar, ko'rgazmali hisoblashni yaxshi bajaradilar. Intellekti buzilmagan serebral falajli bolalarda fazoviy idrok yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. SHuning uchun ular fazodagi yo'nalishlarni orientirlashda, ba'zan esa fazoda predmetlarning joylashuvini belgilaydigan jummalarni (ustida, u yerda, bu yerda) tuzishda qiynaladilar. Psixologik tekshirish asosida chiqarilgan xulosani boshqa mutaxassislarning fikrlari bilan albatta solishtirish lozim.

1.2 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish metodlari

Maktabgacha pedagogikada metod deb, ta'lim-tarbiya berish maqsadida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir etish uslublari tushuniladi. Metod o'z ichiga bolalar faoliyatini tashkil etish va unga rag'barlik qilishga qaratilgan pedagogik faoliyat usullarini, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning faoliyat turlari va usullarini qamrab oladi. (L.A.Golovchis). Har bir metodda tashqi va ichki tomonlar farqlanadi. Metodning tashqi tomoni bu tarbiyalanuvchi va pedagogning harakat usullarining sistemasidir. Metodning ichki tomoni u yoki bu harakat usullari zahirida yotadigan psixik bilish jarayonlaridan iborat. Metodning u yoki bu aniq elementlarini usullar deb nomlash qabul qilingan. Metodni tashkil etuvchi usullar qanchalik turli-tuman va boy bo'lsa, o'quv-bilish va o'quv-amaliy vazifalarni hal etish ham shuncha muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Metod va usul o'zaro dialektik aloqadadir: metodning tarkibiy qismi bo'lgan usul ayrim hollarda metod sifatidan namoyon bo'ladi. Metod va usul o'rtasidagi farq ular yordamida hal

etiladigan o'quv bilish vazifalarinig hajmi va tabiatiga bog'liq: metod umumiy o'quv vazifasini (yoki uning yirik mantiqiy qismini) butunlay hal etishga, usul birmuncha kichikroq vazifani hal etishga qaratilgandir. Zamonaviy didaktikada bolalarning faoliyatini, borliqni bilish yo'llarini belgilovchi ko'rgazmali, amaliy va so'zli metodlar qo'llaniladi. (A.V.Zaporojets, T.A.Markova, V.I.Loginova, P.G.Samorukova). Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabida uch turdagi maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan, namoyish etiladigan ko'rgazmali metodlar guruhiga quyidagilar: kuzatish, rasmlarni tomosha qilish, kinofilm va diafilmlarni namoyish qilish, shuningdek, ayrim hollarda mustaqil metodlari vazifasini bajaradigan ba'zi usullari: vazifa-namunasi, harakat usulini ko'rsatish va boshqalarni kiritadilar. (V.I.Loginova, P.G.Samorukova).

O'rgatish metodlari-pedagogikada qabul qilingan ta'rifga ko'ra qo'yilgan masalani yechish uchun tanlangan yagona yo'l sifatida ta'riflanadi. U mashg'ulotdagi bolaning va defektologning butun faoliyatini o'rgatish usullari-ayrim yordamchi vosita bo'lib, mashg'ulotdagi faoliyatning xususiyatini aniqlamaydi, u ta'limda tor ma'nodagi ahamiyatga ega. Ayrim metodlar mashg'ulot ishining umumiy yo'nalishini aniqlamay, balki usul sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning mustaqil ishlari katta o'rin egallaydi, faqat bu mustaqil ishlarga bolalarning murakkab muammoli masalalarni yechishi kirmaydi, chunki bunday murakkab masalalar uzoq vaqtni talab qiladi. Qolgan metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkablik qiladi, chunki ularning deyarli barchasi muammoli masalalarni yechish bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi uchun o'ziga xos bo'lgan asosiy guruhni o'yin usullari tashkil etadi va bu o'yinlardan turli metodlar ichida foydalanish mumkin. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning borliqni bilishda ko'ruv idrokining, ko'rgazmali maxsus maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlarga doir bir qancha vazifalar tovush talaffuzi, sur'ati, diktsiya, tasviriylilik vam ifodalilikni shakllantirishning asosiy yo'li ishning frontal shaklidir. Bundan bolalar bog'chasining hamma guruhlarida foydalaniladi. Bu ish avvalo mashg'ulot

formasida amalga oshiriladi va unga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi. Tovush talaffuzi, nutqda nafas olish, eshitish mashqlari har kuni olib boriladi. Ba'zi mashqlar nutq o'stirishga oid boshqa mashg'ulotlar jumlasiga kiritiladi. Kichik guruhlarda bolalar bilan olib boriladigan ishlar frontal tarzda hamma bolalar bilan o'tkaziladi. SHuningdek individual tarzda ham olib boriladi. Bolalar bilan yil davomida undosh tovushlardan p, b, m, n, t, d, q q, g, f, v, n sirg'aluvchi s, z unli tovushlardan a, o, u, i, o', e larni tallafuzi nutq orqali nafas olish, eshitish idrokini, nutq apparatining harakatini, nutq apparatini rivojlantiruvchi shovqinli tovushlarni talaffuz etishga tayyorlash ishlari olib boriladi.

Tovushlarni mustahkamlash mashqlarini boshqa mashg'ulotlarga qo'shib olib borib, uning tarkibiy elementi yoki maxsus qismi sifatida kiritish mumkin. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" didaktik o'yin o'ynalsa, ikkinchi qismida eshitish idrokini o'stiradigan mashqlar bajariladi. "Ovozidan top" o'yini o'ynaladi (4-5 daqiqa) eshitish nutqini, diqqat bilan eshitishni, nafas olishni, nutq apparatining harakatini rivojlantiruvchi mashqlar ertalabki, kechki soatlarda, sayr vaqtlarida o'tkaziladi. O'rta guruhda qiyin tovushlarni talaffuz qilishga o'rganish maxsus mashg'ulotlari bir necha qismdan iborat, bir mazmunga birlashgan holda tuzib o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan: mashg'ulotlarning birinchi qismida bolalar oldiga o'quv vazifasi qo'yiladi. - sh tovushni aytishga o'rgatish: bunda tovush artikulyatsiyasi ko'rsatiladi, tushuntiriladi va bolalarga mashq qildiriladi. Mashg'ulotning ikkinchi qismida esa bolalar sh tovushning talaffuzini so'zlarda (shamol, shahar, eshik mushuk bosh, tosh, yo'ldosh) mashq qiladilar. Bu qism didaktik o'yin, dramalashtirilgan hikoya, instsenirovka shaklida berilishi ham mumkin. Nutqning tovush madaniyati ustida ishlash katta va tayyorlov guruhlarida davom ettiriladi. Sistemali ravishda olib borilgan ishlar natijasida maktabga tayyorlov guruhidagi barcha bolalarda ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etadigan bo'lishlari lozim. Lekin shunga qaramay, katta va tayyorlov guruhlarida ham mashg'ulotlar hamma bolalar bilan frontal tarzda o'tkaziladi. Bunda maxsus

mashg'ulotlarning maqsadi o'zgaradi. Bunda bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qiladilar va ularda nutqdagi tovush madaniyatining boshqa tomonlari (turli ovoz kuchidan, turli nutq sur'atidan foydalana bilish) tarbiyalanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga turli nutq tovushlari: she'r o'qish, tez aytish, so'zlar, maqolalar, sanoqlar qayta hikoya qilish, suratlarni ifodalash asosida tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirib borish lozim. Katta guruhlarda haftada 2-3 marta mashg'ulotlardan tashqari vaqtda kollektiv bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlar, nafas, eshitishni rivojlantiruvchi takroriy o'yinlar o'tkaziladi. Katta guruhlarda frontal ishdan tashqari tovush talaffuzida nuqsonni bo'lgan bolalar bilan individual tarzda qo'shimcha mashg'ulotlar joriy qilinadi. Tekshiruvlar o'tkazilgach talaffuzdagi nuqsonlariga qarab bolalar guruhchalarga ajratiladi. Masalan: Anvar, Nasiba, Dilbar r tovushini talaffuz eta olmaydilar. Defektolog bu bolalar bilan har haftada 2-3 marta qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadi (ertalabki yoki kechki soatlarda). Bu mashg'ulotlarning har biri 10-12 daqiqa davom etadi.

Birinchi bobga xulosa

Umumiy psixologiyaning bolalarni o'rganishdagi individual-tipologik, shaxs-jamiyat, tizimli-tuzilish yondoshishlari, sifat-sonli baholash kabi nizomi rivojlanishda turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'rganishdan tashqari normal rivojlangan bolalarda kuzatiladigan nutq va muloqotdagi kamchiliklarni ham o'rganish zarur hisoblanadi. U yoki bu metodlarni va ularning ketma-ketligini tanlash tekshiruvchining yosh va individual xususiyatlariga bog'liq. Maktabgacha muassasa tarbiyalanuvchilariga ularning idrok etish qobiliyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan ma'lumotlar berib boriladi. Dasturdagi o'quv material mavzularga ajratiladi, mavzularning mazmuni yildan yilga kengayib, chuqurlashtirilib, aniqlashtirilab boriladi va uni o'zlashtirish uchun bolalardan aqliy faollik talab etiladi. Dastur materiallarida ilmiylik bilan tushunarlik tamoyillarining uyg'unlashuvi, bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'onishiga, mantiqiy tafakkuri, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish,

solishtirish, abstraksiyalash kabi psixik jarayonlarining takomillashuviga xizmat qiladi. Metodning ichki tomoni u yoki bu harakat usullari zahirida yotadigan psixik bilish jarayonlaridan iborat. Metodning u yoki bu aniq elementlarini usullar deb nomlash qabul qilingan. Metodni tashkil etuvchi usullar qanchalik turli-tuman va boy bo'lsa, o'quv-bilish va o'quv-amaliy vazifalarni hal etish ham shuncha muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Metod va usul o'zaro dialektik aloqadadir: metodning tarkibiy qismi bo'lgan usul ayrim hollarda metod sifatidan namoyon bo'ladi. Metod va usul o'rtasidagi farq ular yordamida hal etiladigan o'quv bilish vazifalarining hajmi va tabiatiga bog'liq: metod umumiy o'quv vazifasini (yoki uning yirik mantiqiy qismini) butunlay hal etishga, usul birmuncha kichikroq vazifani hal etishga qaratilgandir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning mustaqil ishlari katta o'rin egallaydi, faqat bu mustaqil ishlarga bolalarning murakkab muammoli masalalarni yechishi kirmaydi, chunki bunday murakkab masalalar uzoq vaqtni talab qiladi. Qolgan metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkablik qiladi, chunki ularning deyarli barchasi muammoli masalalarni yechish bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi uchun o'ziga xos bo'lgan asosiy guruhini o'yin usullari tashkil etadi va bu o'yinlardan turli metodlar ichida foydalanish mumkin.

2.BOB. Maktabgacha yosh davrida bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ish shakl va metodlarining tahlili

2.1. Maktabgacha ta'lim tizimida korreksion ishlar samaradorligini oshirish va korreksion yo'naltirish

Ta'lim tarbiya tamoiylariga asoslangan holda ta'limning mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari tanlanib, uning samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi. Maktabgacha muassasa tarbiyalanuvchilariga ularning idrok etish qobiliyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan ma'lumotlar berib boriladi. Dasturdagi o'quv material mavzularga ajratiladi, mavzularning mazmuni yildan yilga kengayib, chuqurlashtirilib, aniqlashtirilab boriladi va uni o'zlashtirish uchun bolalardan aqliy faollik talab etiladi. Dastur materiallarida ilmiylik bilan tushunarlik tamoyillarining uyg'unlashuvi, bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'onishiga, mantiqiy tafakkuri, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish, solishtirish, abstraksiyalash kabi psixik jarayonlarining takomillashuviga xizmat qiladi. 4-5 yoshli bolalarni analitik o'qishga o'rgatish maqsadida so'zli nutqning daktil, og'zaki, yozma shakllari qo'llaniladi. Ko'rgazmalilik metod rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyadashda muhim ahamiyat kasb etadi, zero bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'sishiga yordam beradi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Mashg'ulotlarda, turli faoliyatlar jarayonida tarbiyalanuvchilar buyumlarni ko'zdan kechiradi, taqqoslaydi, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, sifat va xossalarni bilib oladi, buyumlarning turli belgilariga asoslanib guruhlariga ajratadilar. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarida bolalarning son, sanoq, kattalik, shakl, vaqt, fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirish uchun turli rasm, buyumlar, tarqatma material, kompyuter, texnika vositalardan keng foydalaniladi. Ko'rgazmalilik metod bolalarning amaliy faoliyatida ro'yobga chiqariladi, ular jonli ob'ektlarni

kuzatadilar, buyum va rasmlarni ko'zdan kechiradilar, model, chizmalardan foydalanadilar, diafilm, kinofilmlarni tomosha qiladilar, musiqani tinglaydilar, vizual apparaturadan foydalanadilar. Defektolog va psixolog o'z faoliyatida bolalarning bilish qobiliyatlarini faollashtiruvchi usullarni qo'llashi kerak bo'ladi. Bola mashg'ulotlarda qo'yilgan bilish vazifalarni amaliy faoliyatida yechmog'i zarur. Tarbiyalanuvchilarning bilish faolligini oshirish maqsadida "Sen nima uchun shunday o'ylaysan", "Sen qanday bilding", "Nima uchun" kabi savollar qo'yish maqsadga muvofiq. Turli faoliyatlarni tashkil etish chog'ida bolalarning mustaqilligi va faolligini oshirib borib, ta'limning sifat va samaradorligini oshirilishi hamda bolaning har tomonlama rivojlanishiga erishiladi. Muntazamlilik va izchillik metod. Maktabgacha ta'lim jarayonida atrofdagi narsalar, tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot voqealari to'qrisidagi ma'lumotlar berib boriladi. Ko'p marotaba o'tkazilgan kuzatishlar, amaliy faoliyat jarayonida umumlashgan tasavvur va tushunchalar shakllanib boradi. Barcha bo'limlar bo'yicha o'quv dastur konsentrik tuzilgan bo'lib, har yili o'quv material chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan holda takrorlanib boradi. Defektolog va psixolog o'quv materialni asta-sekin murakkablashib borishini ta'minlab taqsimlaydilar.

Muntazamlilik va izchillik metodga amal qilgan holda bilimlar puxta o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Olingan bilim, ko'nikma va malakalar bolalarning amaliy faoliyatida ro'yobga chiqariladi. Tarbiyalanuvchilarning o'yin, mehnat, o'quv faoliyati davomida keyinchalik hayotida zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Tevarak atrof bilan tanishtirish jarayonida jamiyatimiz hayoti haqida oddiy tushunchalar, sayr-sayohat davomida olingan bilim va malakalar mehnat va o'yin faoliyatlarda mustahkamlanadi. Masalan, bolalar kattalar mehnati bilan tanishtiriladi, mehnatga ijobiy munosbat tarbiyalanadi, olingan bilimlar kattalarning faoliyati, o'zaro munosabatini aks ettiruvchi syujetli-rolli o'yinlarda, nutqiy muloqotida mustahkamlanadi. Umumiy didaktik tamoyillardan tashqari, maktabgacha tarbiya yoshidagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini, korreksion-ta'limning mazmunini

hisobga olgan holda ta'limning maxsus turi farqlanadi. (N.I.Belova, B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova va x.k.).

Mazkur tamoyil rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasida psixik funksiyalarning rivojlanish bosqichlarini, psixik rivojlanish qonuniyatlarini, hamda senzitiv davrlarni hisobga olgan holda samarali ta'limni tashkil etishga yordam beradi. Bolalarning nutqi mashg'ulotlarda, kun davomida ularning amaliy faoliyat jarayonida shakllantiriladi. Bolalarda nutqiy muloqot qilish ehtiyoji tarbiyalanadi, o'z hoxish-istaklarini so'zli nutq vositasida bayon etishga o'rgatib boriladi. Dasturda bolalar egallashi lozim bo'lgan lug'at boyligi belgilanadi. Maxsus maktabgacha muassasalarda so'zli nutqning uch shakli, ya'ni og'zaki, yozma, daktil nutq qo'llaniladi. Yozma nutq o'qish va yozish jarayonida ishlatiladi, dastlabki ma'lumotlar bolalarga yozma ravishda (yozuvli kartochkalarda) beriladi. So'z tarkibi va tuzilishini o'zlashtirish, o'qishni o'rgatish jarayonini tezlashtirish, muloqotni osonlashtirish maqsadida yordamchi vosita etib daktil nutqdan foydalaniladi. Og'zaki nutq maktabgacha ta'limning yakunida, mashg'ulotlarda asosiy muloqot vositasi bo'lib qolishi kerak. Nutqiy muloqotni rivojlantirish metodi korreksion-tarbiyaviy ish davomida ro'yobga chiqariladi, dastur talablarida, ayniqsa nutq o'stirish bo'limida o'z aksini topadi.

Mazkur metod L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasini hisobga olish" g'oyasiga asoslanadi. Bolaning sog'lom funksiyalariga asoslangan holda, yoshiga mos psixik rivojlanishni ta'minlash korreksion ishning mazmuni hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola rivojlanishining o'ziga hosligi, ayrim bilimlarni mustaqil egallab ololmasligi, ota-onalar tomonidan yetarli e'tibor berilmayotgani oqibatida, bolaning psixik rivojlanish saviyasi me'yordan orqada qolishi mumkin. Maktabgacha muassasasida bolaning barcha imkoniyatlarining ro'yobga chiqarilishiga shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Pedagoglar bolaning imkoniyatlari, "yaqin rivojlanish zonasini" aniqlab, uning uyg'un rivojlanishini ta'minlashi lozim.

Ta'limning yetakchi tamoyillaridan biri korrektsion metod, ta'limning barcha jabhalarini qamrab oladi. Bolalar nuqsonining tuzilishi va murakkabligi, ularning alohida xususiyatlari va imkoniyatlari aniqlanib, har bir tarbiyalanuvchiga alohida differensial yondashiladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga hosligi, nutqiy rivojlanishidagi yetishmovchiliklar va muloqotning cheklanishi sistematik korrektsion ishning olib borilishini talab etadi. Korrektsion ta'limning mazmuniga nutq o'stirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish kabi maxsus korrektsion yo'naltirilgan bo'limlar kiritiladi. Kun tartibida har kuni 2 soat alohida mashg'ulotlarga ajratiladi. Yalpi mashg'ulotlarda bolalar uchun, nutqiy malakalari, labdan o'qish hamda eshitish qobiliyatini hisobga olgan holda turli murakkablikdagi topshiriqlar beriladi. Jamoa bo'lib ishlatiladigan hamda individual qo'llaniladigan eshituv moslamalardan keng foydalaniladi. Ovozni kuchaytiruvchi apparatlar vositasida nutqni qabul qilish malakalarini rivojlantiriladi, og'zaki nutq sifatini yaxshilanadi, tovushlar olamini o'rganishga imkoniyatini kengaytiradi.

Bolaning psixik rivojlanishi turli faoliyatlarda kechadi. Faoliyatlar jarayonida bola borliqni o'rganadi, atrof muhitda mo'ljal olish usullarini o'rganadi, ijtimoiy hayotni bilib oladi, insonlar munosabatlarini o'zlashtirib boradi. Psixikaning rivojlanishi yetakchi faoliyat bilan bog'liq bo'ladi, faoliyat davomida psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar shakllanadi (A.N.Leontev). Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi buyumli, o'yin, tasviriy, konstruktorlik, oddiy mehnat faoliyati bilan bog'liqdir. Dasturning turli bo'limlarida umumrivojlantiruvchi va korrektsion vazifalar turli faoliyatlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Nutqning shakllanishida faoliyatli yondashuv katta ahamiyatga ega. O'yin va boshqa faoliyatlarda nutqiy vositalarni qo'llash, nutqni tushunish uchun tabiiy shart-sharoitlar yaratiladi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin

bolalar uchun haqiqiy hayotdir. A.P.Usova shunday degan edi “Bolalar hayoti va faoliyatini to’g’ri tashkil etish – ularni tarbiyalash demakdir. Bolalarning tarbiyalanishining o’yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o’yinda bola yashashni o’rganmaydi, balki o’z hayoti bilan yashaydi”. O’yin faoliyatidan ko’p qirrali va keng foydalanish, o’yin orqali bolaga har tomonlama ta’sir etishdir. O’yin bolalar yoshiga xos va mos bo’lishi kerak. YA.A. Kamenskiy., E.A.Polkov o’z asarlarida bolalar o’yiniga jiddiy e’tibor berilganligini ko’ramiz. U “bolalar o’yinini e’zozlang, haqiqiy mehnatsevarlarni tarbiyalashda u sizning eng yaxshi hamkoringizdir”- degan fikrlarni bildirgan. O’yinda yosh organizmga xos bo’lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. SHuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida o’yin munosib o’rin egallaydi.

Atoqli pedagog va shifokor Ye.A.Arkin o’yin ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan. A.V.Zaporojets bolalar o’yinining ilk yoshdan boshlab kuzatib borish natijasida uni harakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o’yinining o’ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o’rganish zarurligini ta’kidlaydi. Ilk yoshli bolalar o’yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o’yin bo’lib, u narsa-buyum o’yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo’lning murakkab va nozik harakatlaridir. Keyingi bosqich aks ettirish o’yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o’yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta’lim-tarbiyaviy ishlarini ma’lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o’z o’yinlarida qo’llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o’yin mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o’yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi.

Bola quyidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Masalan, qoshiq bilan ovqat yeyiladi, piyoladan choy ichiladi va hokazo. SHuning asosida syujetli-rolli o’yinning dastlabki qirralari yuzaga kela boshlaydi. Navbatdagi bosqich rolli o’yin bo’lib, unda bolalar o’zlariga tanish bo’lgan kattalar

mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma- bosqich rivojlanishi to'g'risidagi umumiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikni aniq tizimli tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero: o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi; o'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir; o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir; o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir; o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

O'yin faoliyati orqali bolalarda quydagi vazifalar amalga oshiriladi: O'yin orqali shaxsning ma'lum bir faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ortadi. Kommunikativ muloqat madaniyatini egallashga yordam beradi. SHaxsning o'z iqtidori, qiziqishi bilim va o'zligini namoyon etishga imkon yaratadi. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi, mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarni hosil qiladi. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarni barham berish imkoniyati yaratiladi. SHaxsning ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'yin ishtirokchilarida jamoa, muloqat madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. O'yin va o'yin mashqlari tortinchoq bolalarni ham faollashtirishga yordam beradi. O'yin bolalarni nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'yin va mashqlarda nutqiy material ongli ravishda o'zlashtirilib, mexanik yodlashga yo'l qo'yilmaydi. Takrorlash va mustahkamlash jarayonida nutqiy material tizimlashtiriladi, umumlashtiriladi, bolalar har bir buyumning o'ziga xos sifat va xususiyatlarini bilib oladilar. O'yin turlari bolalar o'yini o'zining mazmuni, hususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-hildir, shuning uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi: ijodiy yoki voqeaband va qoidali o'yinlarga bo'linadi.

Qoidali o'yinlar o'z navbatida didaktik va harakatli o'yinlarga bo'linadi. Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalar o'zlari o'ylab topadilar va ularda o'z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Qoidali o'yinlarda esa tayyor o'yin mazmuni, aniq qoidalari, harakatlarini ketma-ketligi oldindan belgilangan. Ijodiy o'yinlar bilan qoidali o'yinlarni farqi shundaki: ijodiy o'yinda bolalarni faolligi syujetni rivojlanishiga qaratilgan bo'lsa, qoidali o'yinlarda esa aqliy vazifani bajarish qoidalarga amal qilish birinchi o'rinda bo'ladi. Bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmuni jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil qilingan jamoa zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy, ahloqiy, mehnat va estetik tomonidan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o'yinlarda muhim bilimlarni egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, hayolni, diqqatni, mustaqillikni shakllantiradi. Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishi, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi.

Qiziqarli o'yin bolaning faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi. O'yin yaxshi yo'lga qo'yilgan pedagogik jarayonda bolalarning butun hayotini qamrab oladi va uning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak - atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro stantsiyasi, temiryo'l vagoni

bo'lishi mumkin va h.k. O'yinning ijodkori, yaratuvchisi-bolalardir. Ular o'yinda o'zlariga tanish bo'lgan hayotiy voqea va xodisalarni ularga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o'yinining yana bir o'ziga xos xususiyati - unda harakat, so'z va obrazlarning o'zaro bog'lanib ketishidir. O'yinda bola o'zi aks ettirayotgan qahramonlarning xis-hayajoni, kechinmalari, harakatlari bilan yashaydi. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor, xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikir almashadi, o'z xis-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak - atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Masalan: Voqeaband o'yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga, ongiga, his-tuyg'ulariga, irodasiga, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, ahloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanish lozim. Voqeaband o'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yin davomida bolalarning nutqidagi kamchiliklar korrektsiyalanadi, mayda qo'l motorikalari harakatchanligi rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z hoxishlarini jamoa hoxishi bilan kelishib olishga o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar. Voqeaband o'yinlarning asosiy maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ijtimoiy hayot, kasblar bilan tanishtirish, lug'at boyligini o'stirishga qaratilgan bo'ladi. Voqeaband o'yinlar asosida bolalarning atrof-olam haqidagi bilimlari kengaytiriladi, lug'at boyligi rivojlantiriladi, bolalar narsalarning rangi, shakli, nima uchun va qaerda ishlatilishi haqidagi tushunchalari kengaytirilib boriladi. Harakatli o'yinlar, hozirgi rivojlangan davrda o'z ishiga ijodiy yondoshadigan shaxs shakllanib kelmoqda. Bu bolalarni har tomonlama

barkamol kishilar qilib voyaga yetkazishda, ularga jismoniy, aqliy va estetik tarbiya berish katta ahamiyatga ega. “Sog’ tanda – sog’lom aql” deydi xalqimiz. Ha, jismoniy sog’lom bola barcha ishlarni yaxshi bajaradi, tetik va xushchaqchaq bo’ladi. Aholining sog’lig’ini mustahkamlashda, shaxsni kamol toptirishda, yoshlarni mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashda jismoniy tarbiya, sport, ularning kundalik hayotga joriy etishning ahamiyati o’sib bormoqda. Sog’lomlashtirish vazifalarini hal etishda ochiq havoda mashg’ulotlarni olib borish katta ahamiyatga ega. Ochiq havodagi mashg’ulotlar bolalarning tabiat va ob-havo hodisalari haqidagi bilimlarini kengaytiradi, bu hodisalar orasidagi bog’lanish sabablarini o’rganishga yordam beradi, bu esa o’z navbatida fikrlashni, nutqini o’z tushunchalarini bayon etishni rivojlantiradi. Turli harakatlar bolaning hissiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, bolaning irodasini mustahkamlashga, mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. Qoidali haraktli o’yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi, kichik va o’rta maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning eng ma’qul bo’lgan vositalaridan biri hisoblanadi. Harakatli o’yinlar orqali bola jismonan va aqlan rivojlanadi, irodasi mustahkamlanadi, bola jamoada o’zini tutishga, ma’lum qoidalarga rioya qilishga o’rganadi. Harakatli o’yinlarning yetukligi shundaki, bunda inson uchun xos bo’lgan harakatlar: yurish, yugurish, sakrash, oshib o’tish, otish va ilish kabi mashqlarning barchasini qamrab oladi. Harakatli o’yinlar bolada faqat tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilikni tarbiyalab qolmasdan balki, uning ahloqiy jihatdan tarbiyalanishiga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Masalan: guruhli o’yinlar bolada o’rtoqlik, mehribonlik, shaxsiy qarashlarini o’zgalar qarashiga moslashtira bilish xislarini tarbiyalaydi. Bolada sofdillik, to’g’rilik, o’zgalar fikrini hurmat qilishga o’rgatadi. Bu sifatlar esa turli mehnat jarayonida asosiy o’rin egallaydi. Bola hayotining kun tartibini shunday tashkil etish kerakki, bog’chada, maktabda, uyda bola harakat faoliyatiga bo’lgan talabini qondira olsun. Harakatlarga bo’lgan ehtiyojlarni qondirish vositalaridan biri o’yinlar bo’lib, bolalarga behisob xursandchilik va quvnoqlik baxsh etadi. O’yinlar biror – bir mazmunli, jamoali, jamoasiz, guruhli, shuningdek o’z harakati bo’yicha jismoniy sifatlarni namoyon etishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. O’yinlarni to’g’ri

tashkil etish katta ahamiyatga ega. O'qituvchi yoki tarbiyachi o'yinning mazmunini qanday tashkil etishni oldindan o'ylab qo'ygan va reja asosida olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazmun qisqa, aniq, hissiyotli bo'lishi kerak. O'yinning vaqtini chegaralash ham yoddan chiqmaslik kerak. Bu o'yinning zarur shartlaridandir. Har bir o'yin o'tilgandan keyin o'yinga yakun yasash va baholash, tahlil qilish muhim shartlardan biri hisoblanadi. O'yinda faol ishtirok etgan bolalar maqtov eshitib rag'batlantirishlari, kim o'yin qoidalariga rioya qilmaganligi, qoidalarni buzganliklari, qaysi bola o'yinda faol ishtirok etmaganligiga izoh berib boriladi. Harakatli o'ynlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida o'yin g'oyasi, milliyligi, ilmiyliyligi va rejasiga e'tibor berib, tarbiyaviy, ta'limiy, sog'lomlashtirish natijalariga erishishga qaratilishi kerak. O'yinning muvaffaqiyatli o'tishi ko'p jihatdan rollar taqsimotiga bog'liq bo'ladi.

SHuning uchun o'yinda ishtirok etayotgan bolalarning harakteri, individual xususiyatlarini va rivojlanish darajalarini inobatga olish kerak. O'yin davomida javobgarlik va asosiy rollar bitta bolaga topshirilmasdan, asta-sekin barcha bolalarni jalb qilib borish lozim. Tarbiyachi har bir bolaning umumiy holatini kuzatib, tahlil qilib borishi lozim. Bola uzoq vaqt bitta holatda turib qolmasligi, me'yordan ortiq tez chopmasligi, o'yinga nisbatan befarq bo'lmasligini nazorat qilib borish lozim. O'tilgan o'yin muhokamasiga barcha bolalar jalb etilishi kerak. Bu esa bolalarni o'z harakatlarini tahlil qilishga o'rgatadi. O'yin qoidalari va harakatlarini to'g'ri bajarishga ongli munosabatlarni uyg'otadi. "O'yin" - xulq-atvorning fiksatsiyalangan va anglab bo'lmaydigan streotipi bo'lib, bunda shaxs manipulyativ xulq yordamida yaqinlik, ya'ni to'laqonli kontaktlardan qochishga intiladi. Yaqinlik - foyda olishni mustasno etuvchi, ekspluatatsiyasiz, o'yindan ozod bo'lgan his-tuyg'u bilan chin ko'ngilli almashinuvi. O'yin tushunchasiga: zaiflik, hiyla, javob, zarba, rag'batlantirish kabi doimiy xatti-harakat, ma'lum his-tuyg'ular bilan birga amalga oshirilib, ko'pgina o'yin hatti-harakatlari his-tuyg'ular olish uchun bajariladi. O'yinning har bir xatti-harakati sinash bilan birga amalga oshirilib, ular o'yin boshqa zarbalarga nisbatan ko'proq bo'ladi. O'yin qanchalik chuqurlashsa, silash va zarba intensivligi shunchalik oshib, o'yin oxiriga kelib

maksimumga yetadi. O'yinning uch darajasi ajratiladi: o'yinning 1- darajasi jamiyatda qabul qilingan bo'lib, ular yashirilmaydi va og'ir oqibatga olib kelmaydi, o'yinning 2-darajasi yashiriladi, jamiyat tomonidan ma'qullanmaydi va to'g'irlab bo'lmaydigan deb nomlab bo'lmaydigan zararlarga olib keladi; o'yinning 3-darajasi yashiriladi, qoralanadi, mag'lub bo'lgani uchun to'g'irlab bo'lmas zararlarga olib keladi.

O'yinlarni odam o'zi bilan o'zi, ko'pgina ikki o'yinlar orasida (bunda har bir o'yinni bir necha rollarni ijro etishi mumkin) va ba'zida esa ko'pgina biror tashkilot bilan o'yin tashkil etishi mumkin.

Transakt analizda quyidagi psixologik o'yin turlari ajratiladi:

- "Silashlar va zarbalar", -"Transaksiya"lar, - "Undirish", - "Taqiqlar va erta yechimlar", - "Hayotiy stsenariy", Psixologik o'yin birin-ketin davom etuvchi yashirin motivatsiyaga ega, aniq va ma'lum natijali transaksiya seriyasidan iborat. Yutuq sifatida o'yinchi ongsiz ravishda intiluvchi biror-bir emotsional holat aks ettiriladi. «Silashlar va zarbalar» - ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni almashinishiga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar. Siypalashlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

-Pozitiv: "Siz menga yoqasiz", "Siz juda go'zalsiz". -Negativ: "Siz menga yoqmaysiz", "Bugun sizning ahvolingiz yaxshi emas". SHartli (odam hozir bajarayotgan ishga qaratiladi va natijalarni aks ettiradi): "Siz bu ishni yaxshi bajardingiz", "Agar, sen menga ko'proq yoqarding". SHartsiz (odam kim ekanligi bilan bog'liq): "Siz yuqori darajali mutaxassissiz", "Men siz qanday bo'lsangiz, shundayligicha qabul qilaman". Qalbaki (tashqaridan pozitivga o'xshaydi, lekin, haqiqatda zarba bo'ladi): "Aqlsiz odamga o'xshasangiz ham, albatta, men aytgan gaplarni tushundingiz", "Odatda, kiyimlar sizda qopdek osilib tursa ham, bu kiyim sizga juda yarashibdi". Odamlarning har qaysi munosabati silash va zarbalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular odamning o'zini baholashga katta ta'sir etuvchi odamning silash va zarba bankini tashkil etadi.

Har bir odam silashga muhtojdirlar, mazkur ehtiyoj o'smirlarda, bolalar va qariyalarda o'tkir namoyon bo'ladi. Silash va zarbalar teskari bog'liqlikka ega bo'lib, odam qanchalik ko'p pozitiv siypalashlarni qabul qilsa, shunchalik kam zarba beradi; aksincha, qanchalik ko'p zarba olsa, shunchalik kam siypalash beradi. "Transaksiya"lar - u yoki bu rol ("katta", "Ota yoki ona", "farzand") pozitsiyasidan boshqa odam bilan amalga oshiriluvchi barcha munosabatlar. Qo'shimcha, qarama-qarshi va yashirin transaksionalar- o'zaro ta'sirga kirishuvchi odamlar niyatiga mos keladi hamda insonlar orasidagi sog'lom munosabatlarga kiritiladi. Bunday munosabatlar ziddiyatsiz bo'ladi hamda chegaralanmagan vaqtgacha davom etishi mumkin. Qarama-qarshi transaksionalar o'zaro haqorat, o'tkir repliklar bilan boshlanib, eshikni taraqlatib yopish (chiqib ketish) bilan yakunlanadi. Bu holda stimulga noo'rin "ego xolati"ni faollashtiruvchi reaksiya bo'ladi. Yashirin transaksionalar ikki va undan ortiq "ego xolat"larni o'z ichiga olib, ulardagi ma'lumot ijtimoiy jihatdan me'yoriy stimulga niqoblanadi, biroq javob reaksiyasi psixologik o'yin mazmunini tashkil etuvchi yashirin ma'lumot effektidan kutiladi. "Undirish" - xulq-atvor usuli bo'lib, u yordamida odamlar odatiy ustanovkalarni realizatsiyalab, o'zida salbiy his-tuyg'ularni chaqirishdan va o'z xulq-atvori bilan ularni tinchlantirish zarurligini talab etishadi. Undirish bu, odatda o'yin yakunida o'yin tashabbuskor (initsiator)i ega bo'ladigan biror "sovg'a", "intilish mazmuni"dir. Masalan, mijozni atrofdagilar tomonidan emotsional va psixologik qo'llay olishga yo'naltirilgan ko'p sonli shikoyatlari. "Taqiqlar va erta yechimlar" - bolalikda ota-onadan bolalarga "farzand", "ego-holati"i orqali beriluvchi xabarni ifodalovchi tayanch tushunchalardan biri bu taqiqlarni xulq-atvorining mustahkam matritsalar bilan taqqoslashi mumkin. Mazkur xabarnomaga javob sifatida bola "erta yechimlar" deb ataluvchi qarorga keladi, ya'ni xulq-atvor formulalari taqiqlardan kelib chiqadi.

"Hayotiy stsenariy" - bu shaxs o'ynashi majbur bo'lgan va spektakl'ni eslatuvchi hayotiy reja. U o'z ichiga quyidagilarni oladi, ota-onadan beriladigan ma'lumot (ijtimoiy me'yorlar, taqiqlar, xulq-atvor qoidalari). Bolalar ota-onadan

umum hayotiy reja hamda odam hayotining turli tomonlari (kasbiy stsenariy, erga tegish-uyulanish stsenariysi, ta'limiy, diniy va h.k.)ga oid verbal stsenariyli xabarlar olishadi. SHu bilan birga ota-ona stsenariylari konstruktiv, destruktiv va noproduktiv bo'lishi mumkin. Erta yechimlar (ota-ona taqiqlariga javoblar); Erta yechimlarni amalga oshiruvchi o'yinlar; Erta yechimlarni oqlovchi undirishlar; Hayot pesasi yakunini taxminlari va undan kutiluvchi natijalar.

“Psixologik pozitsiya yoki asosiy hayotiy ustanovka” - o'zi, ahamiyatga ega boshqa (shaxs)lar atrof olam haqidagi tayanch bazali tasavvurlar yig'indisi bo'lib, odamning asosiy qaror (yechim)lari va xulq-atvoriga asos yaratadi. Quyidagi asosiy pozitsiyalar farqlanadi:

1. “Men muvaffaqiyatli — sen muvaffaqiyatli”.
2. “Men muvaffaqiyatli emas — sen muvaffaqiyatli emas”.
3. “Men muvaffaqiyatli emas — sen muvaffaqiyatli”.
4. “Men muvaffaqiyatli — sen muvaffaqiyatli emas”. “Men muvaffaqiyatli — sen muvaffaqiyatli” - bu to'liq mazmunlik va boshqalarni qabul qilish pozitsiyasi. Odam o'zini va o'z atrofini eson-omon, ma'qul deb topadi. Bu omadli, sog'lom shaxs pozitsiyasidir. Bunday odam atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo'ladi, boshqa odamlarga yaxshi qabul qilinadi, mehribon, ishonchga erishuvchan dunyoda yashay oladi, ichki tomondan ozod, ziddiyatlardan qochadi, o'zi bilan yoki atrofdagilar bilan kurashishga vaqt sarflamaydi. Bunday pozitsiyali inson har bir odamning hayoti uni baxtli yashab o'tishga molik deb hisoblaydi. “Men muvaffaqiyatli emas — sen muvaffaqiyatli emas”: Agar inson e'tibor, g'amxo'rlik bilan o'ralgan bo'lib, biror bir voqea-hodisa ta'sirida unga bo'lgan munosabat radikal ravishda o'zgarsa, u o'zini muvaffaqiyatli emasdek his eta boshlaydi, Atrof ham negativ tarzda idrok etiladi. Bu hayot ma'no-mazmunsizdek va idrok etiluvchi umidsizlik pozitsiyasidir. Mazkur pozitsiya e'tibordan holi qarovsiz, atrofdagilari beparvo bo'lgan bolaga yoki katta ayrilishni boshidan kechirgan va atrofdagilari undan yuz o'giran, qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lgan paytda u o'zini tiklash uchun resurslarga ega bo'lmagan katta yoshlilarda yuzaga kelishi mumkin. «Men

muvaffaqiyatli emas — sen muvaffaqiyatli emas» ustanovkasiga ega ko'pchilik odamlar hayotini katta qismini narkologik, psixiatrik va somatik statsionarlarda, ozodlikdan mahrum etish joylarida o'tkazishadi. Ular uchun o'zini o'zi barbod etuvchi xulq-atvor asosida yuzaga keluvchi sog'liq-salomatlik buzilishlari xos. Bunday ustanovkali inson uning va boshqa odamlarning hayoti hech narsa deb hisoblashadi. "Men muvaffaqiyatli emas — sen muvaffaqiyatli". Bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalar og'irligi bilan yuklangan va ularning aybini o'ziga oluvchi o'zi "Men" ini negativ obraziga ega odam. U o'ziga yetarlicha ishonmaydi, omadga da'vo qilmaydi, o'z mehnatini past baholaydi, tashabbus va mas'uliyatni bo'yniga olishdan bosh tortadi. U o'zini unga katta, kuchli, omadli figuralar bo'lib ko'rinuvchi atrofdagilardan to'liq tobe va bog'liq deb biladi. Bunday pozitsiyaga ega odam o'z hayotini atrofdagi, omadli, kuchli odamlar hayotidan ancha past baholaydi. "Men muvaffaqiyatli — sen muvaffaqiyatli emas". Bu takabburona afzallik ustanovkasidir. Mazkur fiksatsiyalangan emotsional ustanovka erta bolalikda ham, undan katta yoshda ham shakllanishi mumkin. Bolaliqda mazkur ustanovka ikki mexanizm asosida shakllanishi mumkin. Birinchi holatda, oila bolani oilaning boshqa a'zolari va atrofdagilardan ustunligini turli yo'llar bilan ko'rsatib beradi. Bunday bola o'zi hurmat-izzatda, atrofdagilarni esa kamsitish iqlimida o'sadi. Ustanovka rivojlanishining boshqa mexanizmi bola doimiy ravishda sog'lig'i va hayoti uchun havfli bo'lgan sharoitlarda bo'lganda yuzaga kelib, bunda bola navbatdagi xaqoratdan so'ng bola uni hafa qilganlardan yoki uni himoya qilmaganlardan ozod bo'lishi uchun "Men muvaffaqiyatli — sen esa muvaffaqiyatli emas" degan hulosaga keladi. Mazkur ustanovkani odamlar o'z hayotini yuqori baholab, boshqa odamlar hayotini qadrlamaydi [27.b.69].

Kar va zaif eshituvchi bolalar eshituv holati, nutqi, aqliy rivojlanishi jihatdan har xil bo'ladilar. Ularning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda nuqsonning tuzilishini hisobga olish zarur. Differensial tamoyilga muvofiq kar va zaif eshituvchi bolalarga nutq o'stirish, eshituv qobiliyatini rivojlantirish, talaffuzga o'rgatish bo'yicha turli talablarni aks ettirgan dasturlar qo'llaniladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar guruhlarida nutqiy holatga ko'ra ikkiga bo'linadi. Bolalarning aqliy

rivojlanish darajasi, qo'shimcha murakkab kamchiliklar(psixik rivojlanishining sustlashuvi, aqliy zaiflik, xulq-atvordagi buzilishlar va b.) ularning ta'limiga differensial yondashuvni talab etadi.

2.2. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlarning tahlili

Bog'cha bilan maktab o'rtasida o'rnatilgan izchil aloqaning har tomonlamaligi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Ta'limga psixologik tayyorgarlik, deganda bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning tayyorgarlik darajasi bolalar bog'chasi psixologi tomonidan psixologik diagnostika va korrektsiya qilinadi. Ushbu jarayonda lozim bo'lsa psixologik korrektsiya ishlari amalga oshiriladi. Binobarin, bolaning psixikasi bu davrda ilm olishga yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Psixolog bu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, rivojlanganligi, sezgisining aniqligi, qiziquvchanligi, dilkashligi, hayrihohligi. ishonuvchanligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchligi, tafakkurining yaqqolliigi darajasini psixologik jihatdan diagnostika qiladi va ayni paytda korrektsiya ishlari ham olib boriladi.

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli, shartli, barqaror bo'ladi. Psixologik diagnostika ishlarini olib borayotgan psixolog bu narsani nazardan chetda qoldirmasligi lozim. Chunonchi, bola diqqatining xususiyati rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish, qurish, yasash mashg'ulotarida, loy, plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Psixologik diagnostika ishlari mobaynida bola diqqatining muayyan ob'ektga yo'naltirilganligi, to'planganligi, taqsimlanishi bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega yoki ega emasligini, o'z diqqatini boshqara olish yoki kerakli paytda to'plashga intila olishni o'rganishi lozim. Shuningdek, psixolog bolaning xotirasini qay darajada qiziqarli, kishini taajjubga soladigan

ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatlari darajasini ham diagnostika qiladi. Psixolog bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlashning sub'ektiv tomonini ham psixologik jihatdan diagnostika qiladi. Bolaning maktabda o'qishga xohish, intilishi, katta odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liq ekanligini esdan chiqarmasligi lozim. Bolada shu davrga kelib o'qish, bilib olish haqida to'g'ri tasavvur shakllanganligi darajasi diagnostika qilinadi. Bolani maktab jamoasi a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini anglab yetishi, ularga ixtiyar qilishga, ularning ko'rsatmalarini qay darajada bajarishga moyilligi psixolog tomonidan diagnostika qilinadi. Ushbu jarayonda psixolog bolaning hammasi bir xil emasligi sababli ular o'rtasida muhim farqlar mavjudga kelishini hisobga olishi zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik diagnostika ishlari mobaynida quyidagi sistema ko'zga tashlanadi, ya'ni ba'zi bola maktabga butun mavjudi bilan talpinadi, o'qishga qancha vaqt qolganini uzluksiz sanaydi, o'quv ashyolarini oldinroq tayyorlab, harakat qiladi. Boshqa bir bola esa maktabdan qat'iy voz kechishga boradi. Ushbu jarayonlarni psixologik jihatdan diagnostika qilishda o'qishga nisbatan salbiy munosabat ko'pincha kattalarning qo'rqitishlari oqibatida mavjudga kelganligi aniqlanadi [27.b. 75]. Maktab bilan bog'cha o'rtasidagi uzviy aloqa ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari tashkiliy shakllari, shuningdek, bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va psixik talab kabi yetakchi tomonlari psixologik jihatdan talab qilinadi. Bunda psixolog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak: -Maktab talabi nuqtai nazaridan bilimlarni qay darajada chuqurroq egallab olishlari diagnostika qilinadi. Lozim bo'lsa bog'cha nuqtai nazaridan bolani maktabtalabi darajasidagi bilim malaka, ko'nikmalar bilan qay darajada qurollantirilganligi diagnostika qilinadi; -Bolalarning maktabga qay darajada ruhiy tayyorgarligi darajasi diagnostika qilinadi. Shuningdek, asosiy vazifa bolalar mehnatining qay turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat bilimga qiziqishni o'stirish, ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatiga qay darajada tayyor ekanligi diagnostika qilinadi; -Bolalar bog'chasidagi beriladigan ta'lim qay darajada

rivojlantiruvchi ekanligi diagnostika qilinadi; -Psixolog bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasida izchil aloqa bor yoki yo'qligini diagnostika qiladi;

-Psixolog bog'cha yoshidagi bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilim va tushunchalar mazmunini, tevarak atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlar va ayrim oddiy tushunchalar mavjudligini psixologik jihatdan diagnostika qiladi. Bolalar tomonidan tasavvur va tushunchalarning egallab olinishi ya'ni bolalarda har xil sohalar bo'yicha o'zlashtirgan umumiy tasavvurlar sistemasi ularning kelajakda umumiy rivojlanishi uchun nihoyatda zarur bo'lib" busiz ular hozirgi zamon Davlat ta'lim standartlari asosida kerakli biliim ko'nikma, malakalarni egallay olmaydilar. maktabgacha yosh davrida shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash maqsadida quyidagi trening mashqlaridan foydalanish mumkin:

"G'ayritabiiy salomlashish" mashqi ishtirokchilarga bir-birlari bilan panja, yelka, oyoq, peshona, tizza, tirnoq orqali va shular kabi "g'ayritabiiy salomlashish" taklif etiladi. Musiqqa yangraydi. Bolalar xona bo'ylab tartibsiz harakatlanadilar. Trener ishtirokchilardan qanday salomlashish kerakligini so'raydi. Ishtirokchilar bir-biri bilan ixtiyoriy salomlashadilar. Ularga o'z salomlashishlari haqida o'ylab ko'rish tavsiya qilinadi.

"Tug'ilgan kuning bilan" mashqi. Mashq maqsadi: bolalarning bir-biri bilan munosabatlarini yaxshilashga, ochiq samimiy munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Trening ishtirokchilari tik turib bir-biriga qaragan holatda turishadi. Boshlovchi: "Bolalar tasavvur qiling bugun sizlarni tug'ilgan kuningiz. Hozir hamma galma-galdan bir-birlarini so'zlar orqali tug'ilgan kuni bilan tabriklaydi. Qanday xohlasangiz shunday tabriklashingiz mumkin". Mashq har bir ishtirokchi tabriklab bo'lmaguncha davom ettiriladi.

"Ko'rinmas sovg'a " mashqi. Ishtirokchilar davra qurib olishadi. Boshlovchi qo'lda hamma narsani yasash mumkin bo'lgan ko'rinmas loy borligini va ishtirokchilar undan sovg'a yasab, o'ng tomonidagi ishtirokchiga uzatishlari lozimligini aytadi. Sovg'a yasaladi va qabul qilib olingach, yana boshqatdan sovg'a yasalib, navbatdagi ishtirokchiga taqdim etiladi. Shu tariqa barcha "sovg'a"

olmagunicha bu harakatlar takrorlanadi. O'yin oxirida kimning nima sovg'a qilgani va sababi so'raladi.

Ta'lim tarbiya muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifalaridan biri bu o'quvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu nafaqat u yoki bu ta'lim tarbiya muassasinigina emas, balki konkret o'quv guruhi – sinfga ham taalluqli. Chunki qayerda, qaysi jamoada shaxslararo munosabatlar yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, shu jamoa o'z oldida turgan ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga asos yaratilgan bo'ladi. Bunday jamoada o'z-o'zini boshqarishni joriy qilish ham yaxshi samaralar berishi mumkin. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlaridan biri sotsiometriya metodidir. Sotsiometriya tushunchasi Amerika olimi J.Moreno tomonidan taklif etilgan bo'lib, guruhdagi o'zaro munosabatlarni o'rganish degan ma'noni bildiradi. Sotsiometriya metodi turli guruhlarda, jamoalarda shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini o'rganishning psixologiyada keng qo'llaniladigan eng samarador vositalaridan hisoblanadi. Sotsiometrik tahlil ma'lumotlari shaxsning guruhda tutgan o'rni, guruhda shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, guruh yulduzlari, guruh lideri (guruhning tan olingan sardori) guruhning yakkalanib qolgan (izolatsiyaga tushib qolgan) a'zosi, guruhdagi kichik guruhchalar (mikro gruppalar), ularning tarkibi, o'zaro munosabatlari va yana qator shu kabi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

O'smirlar bilan shaxslararo munosabatlar tizimidagi muammolarni hal qilishda trening mashg'ulotlarini olib borish samarali natija beradi. Bunda qiyidagi mashqlardan foydalanish mumkin:

Mashq: "Bir–biringizni biling" Guruhda qoidalar hosil qilish. Guruh a'zolari aylana bo'lib o'tiradilar va guruhiy ish tamoyillarini muhokama qiladilar. Trening davomida ishtirokchilar rioya qilishi shart bo'lgan qoidalar hamda mashg'ulotlar qachon boshlanishi, davomiyligi va yakuni, guruh a'zolarining rituellari (salomlashish va hayrlashuv usullari, cheklanishlar, kechikkanda va guruh qoidalari buzilganda jazolash) belgilab olinadi. Guruh a'zolarining roziligidan so'nggina, bunga qat'iy amal qilinadi. Bu guruhda ishlashning muhim jihati hisoblanadi. Mashqni amalga oshirish uchun ishtirokchilar ikki guruhga ajratiladi.

Guruh a'zolarining vazifasi bir-birlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun savollar bilan murojaat qilishdan iboratdir.

Mashq: "Assotsiatsiya" Ushbu mashq yaqin kishilari va oila a'zolari haqida ma'lumotlar yig'ishga yordam beradi. "Assotsitsiya" mashqi bolalarning shaxslararo munosabatlari bo'yicha psixodiagnostik xususiyatga ham ega. Mashq ularning yaqin odamlari va ota-onalari bilan assotsitsiyalashuvini ko'rsatadi. Bu mashq ishtirokchilarda ancha jonlanish va qiziqish uyg'otishi kuzatiladi. "O'yla va ayt, oila a'zolariningdan qaysilari senda assotsitsiya uyg'otadi?" Navbatdagi mashq bolalarni atrofdagilarga munosabati va xohish-istaklarini namoyon qilishga o'rgatadi.

Albatta, ushbu psixologik trening natijalarini ishtirokchilarning kayfiyati hamda xohish-istaklari orqali aniqlash mumkin. Buning uchun xayrlashuv rituallariga ham e'tibor qaratish lozim. Guruh a'zolari doira bo'lib tik turadilar. Trener qo'lini oldinga cho'zib, "Hammangizga rahmat!" deb aytadi. So'ngra boshqa ishtirokchi trenerning qo'liga qo'lini qo'yadi va "Bugun zo'r bo'ldi!" deydi, qolganlar ham o'z istaklarini shu tarzda bayon qiladilar. Tilaklar aytib bo'lingach, qo'llar birlashtiriladi, trener ishtirokchilar bilan xayrlashadi va hamma tarqaladi. Bunday trening mashg'ulotlar bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi muammolarini yechimini topishga yordam beradi. Masalan bog'cha yosh davrida quyidagi muammolar kuzatiladi.

Bola psixik taraqqiyoti darajasining yosh normasiga mosligi, ya'ni rivojlanishdagi qiyinchiliklar: xotira, diqqatning yomonligi va boshqalar;

Maktabda o'qishga tayyorgarlik. Bu yerda muammo ota-onaning bolani 6 yoshdan o'qitishga qaror qilinganligi va bu bilan bog'liq bola maktabda yaxshi o'qib, keta oladimi yoki yo'qmi;

Shaxsiy rivojlanishning salbiy ko'kinishlari va odamlarga kirishib ketishlik muammolari;

Bolaning o'z harakatlarini rejalashtira, boshqara va baholay olmasligi. Ota-onaning bola bilan nizolashishi; Bolaning bolalar muassasasiga ko'nikishi.

Yuqoridagi keng tarqalgan muammolarni tuzatish masalalariga to'xtalsak,

unda bog'cha yoshidagi shaxsni mukammal o'rganishimiz kerak. Chunki, bog'cha yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini korreksiya qilish sezgi va idrok qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Barcha bolalar uchun rasm chizish, plastilindan har xil narsalar yasash, aplikatsiya va qurilish faoliyatlari keng qo'llaniladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkurini tuzatishda bilish motivlarini rivojlantirish, obazli tafakkurini rivojlantirishda esa syujetli va rolly o'yinlar, qoidali o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Bolaning maktabda yetuklik darajasini aniqlash, ya'ni ta'lim olishga tayyormi yoki yo'qmi, bilish lozim. Buning uchun alohida metodikalar mavjud. Bolalar bilan dastlabki tanishish uchun Kern Yirasek testi, "Uycha", "Grafik diktant", "Torens" metodikalari va boshqa testlar qulaydir. Masalan, Kern Yirasek testiga to'xtalib o'tamiz. Bu test 3 ta topshiriqdan iborat.

1. Erkak kishining rasmini chizish.
2. Gapni ko'chirish.
3. Nuqtalarni ko'chirish.

Har bir topshiriq 5 baholi sistema bilan baholanadi. Topshiriq natijalari qo'shilib, umumiy baho 13-15 ballgacha to'plagan bolalarning taraqqiyoti yuqori hisoblanadi. 10-13 ballgacha o'rtacha, 9-2 ballgacha normadan past deb hisoblanadi. 5 ball olgan bolalarni chuqur o'rganish, tekshirish zarur. Ular orasida nosog'lom bolalar bo'lishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda shuni nazarda tutish kerakki ushbu guruhdagi bolalarni keyinchalik chuqur tekshirmasdan turib, ularni past, quyi rivojlangan, maktabga tayyormas guruhga qo'shish kerak emas. Yirasekning fikri bo'yicha, yaxshi natija olish bu maktabda yaxshi o'zlashtirishning nisbatan ishonchli asosidir, lekin yomon natija maktabga tayyor emaslik, yomon o'zlashtirish haqida xulosa chiqarishga ishonchli asos bo'lmaydi. "Oyinchoqlar bilan berkinmachoq" Bolalarda diqqatning turg'unligini rivojlantirish. Oyinning tavsifi. Katta odam stolga bir necha yangi o'yinchoqlarni qo'yadi, oldiga 3 ta bolani chaqiradi va ularga navbatma-navbat o'ziga ko'proq yoqayotgan o'yinchoqni tanlashni taklif qiladi. Bolalar o'z o'yinchoqlarini diqqat bilan ko'rib olishlari lozim. Keyin bolalar devorga yuzi bilan turishadi hamda

ko'zlarini yumishadi. Ular ko'zlarini yumib turishgunicha tarbiyachi har bir o'yinchoqni bilinmaydigan joyga berkitadi. O'yinchoqlar bolalarga tanish bo'lgan predmetlar orasida bo'lishi kerak (qo'g'irchoqlar qo'g'irchoqlar orasida, mashinalar mashinalar orasida). Boshqa bolalarga ular o'yinchoqlar qayerdaligini aytib bermasliklari kerakligi tushuntiriladi. Har bir bola o'z o'yinchog'ini o'zi topishi lozim. Tarbiyachi va bolalar xor bo'lib " bo'ldi" deyishadi , bolalar o'z o'yinchoqlarini qidirishni boshlaydilar (buni yana takrorlash lozim).Ular o'z o'yinchog'i bilan qaytganlarida tarbiyachi boshqa bolalardan so'raydi: " Kim birinchi o'z o'yinchog'ini topdi?". G'olib bo'lgan bola qandaydir sovg'a bilan rag'batlantiriladi. O'yin boshidan boshlanadi, endi o'yinchoqni bolalarning o'zi berkitadi.

Oyinining qoidalar:

1. Boshqa o'yinchoqlarga chalg'imysdan faqat o'zinikini topish.
2. Qidirayotganda aytib bermaslik. O'yin qoidasini buzgan bola qidirishdan to'xtatiladi.
- 3.O'yinchoq ber kitilayot ganida ko'zni ochish mumkin emas.

“Esnamezdan javob ber!”

Oyin vazifasi. Bolalarda diqqatning turg'unligini rivojlantirish

Oyinining tavsifi. Bolalar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan 2 ta qatarga o'tirishadi. Tarbiyachi hayvonlar, bolalar, qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni bolalarga tarqatadi. Har bir tarqatilgan rasmning jufti ikkinchi qatordagi bolalarda ham bo'lishi kerak. Tarbiyachi bolarga har bir hayvonning, bolaning yoki qushning do'sti borligini, ya'ni huddi shunday rasm borligini tushuntiradi. Har bir personaj o'zining do'stini tegishli ovoz bilan chaqirishi lozim(agar rasmda sigir bo'lsa unda mo'lashi, agar it bo'lsa vovullashi, agar qiz yoki bolaning rasmi bo'lsa ismi bilan chaqirishi kerak). Har bir qoida ko'rsatib tushuntiriladi. Kim chaqirilgan bo'lsa o'sha tezda javob qaytarishi kerak. Do'stlar Tarbiyachi oldiga kelib, bir-birlariga rasmlarini ko'rsatishlari va ular haqiqatan ham bir xil ekanliklarini bilishlari lozim. Shundan so'ng o'yinni qolgan bolalar davom ettirishadi.

Oyinning qoidalari:

1. Faqat tarbiyachi aytgan boialar ovoz chiqarishadi va o'zining juftini chaqiradi.
2. E'tiborli bo'lish zarur va o'zining sherigiga vaqtida javob qaytarish kerak.
3. Olingan rasmni vaqtidan avval ko'rsatish ta'qiqlanadi. Ma'lum vaqtgacha bu har bir bolaning siri bo'lishi kerak.

Bolalarning o'yin va o'yinchoqlari yoshga mansubligi juda nisbiy hodisa: ularning deyarli barchasini kichik bola imkoniyatlariga moslashtirish "jonli", "haqiqiy", rivojlantiruvchi va qiziqarli qilish mumkin. 2 yoshli bolaning imkoniyatlari ancha cheklangan diqqat beqaror, xotirasi hajmi katta emas, fikrlashi ko'rgazmali amaly tarzda cheklangan, nutq ko'pincha yaxshi rivojlanmagan, harakatlar chaqqon, 2 yoshli bolalar bilan shug'ullanish uchun o'yinlar repertuari katta emas va asoson predmetli manipulyativ faoliyat doirasida cheklangan. L.S.Vigotskiy ongning sistemaliligi haqida gapirar ekan, ilk va maktabgacha bolalikdagi psixik funksiyalarning o'zaro bog'liqligiga yorqin tavsif beradi. Ilk bolalikning asosiy funksiyasi u idrokni biladi, xotira, diqqat, tafakkur, idrok akti-ning ma'lum momenti, uning davom va rivojlanishi sifatida namoyon bo'ladi. Bola o'zi ko'rayotgan yo eshitayotgani haqidagina gapiradi va u bilan shu haqida gaplashishadi. Bunda xotira faol tanib olish sifatida namoyon bo'ladi, tafakkur esa ko'rgazmali maydondagi harakat bilan cheklangan, nutq idrok strukturasini umumlashtirish sababli o'zgartiradi.

O'yinlar bolada maqsadga yo'naltirilgan eshitish idroki, xotira, diqqatni rivojlantirishga ko'maklashmog'i kerak. Uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun rivojlantiruvchi o'yinlar ko'rgazmali amaliy reja bilan cheklanishi lozim. Ular ko'rish obraziga tayanish talab etiladigan o'yinlarga tayyor emas (masalan, bola murakkab qirqma rasmni bir elementini boshqasiga moslab yig'ishi mumkin, biroq buni namuna asosida qilishga qodir emas) shuningdek, u namuna bo'yicha mozaikadan naqshni yig'olmaydi, biroq o'zining naqshini bajonidil yig'ib beradi.

To'rt yoshga kirib ko'pchilik bolalar bu kabi o'yinlarni, avval oson, keyin qiyinroqlarini eplay oladi.

3-4yoshli bolalar uchun yetakchi faoliyat va muloqot turlari:

- emotsional-bevosita muloqot bolaning kattalar, tengdoshlari bilan muloqoti;

- predmetli manipulyativ faoliyat ilk yoshdagi boladan 3-4 yoshgacha bolaning turli o'yinchoqlar va buyumlar bilan faoliyati ularning ijtimoiy - madaniy vazifasiga to'liq mos va kattalar bilan faol hamkorik mavj ud emas.

Bu yoshda bola xatti-harakatlari bevosita predmetlarga bog'liq bo'ladi, uning istaklari esa uning uchun shaxsiy istaklar sifatida mavjud emas. Kattalar bolani o'ziga tortadigan bir buyumni boshqasi bilan almashtirib uning istaklari va harakatlarini boshqaradi.

Aynan ota-onalar ilk yoshidagi bolani to'laqonli rivojlantirishning qulay imkoniyatlariga ega bo'lgan bola unga onasi tushuntirgan narsani, butun guruhga xatto juda tajribali va malakali tarbiyachi aytib berganidan ko'ra osonroq tushunib yetadi, 4 yoshli bolalar uchun o'yin va mashg'ulotlarni tanlash qiziqarlilik, soddalik, tashkil etish qulayligi tamoyillari asosiga quriladi, 3 yoshli bolalar bilan o'yinlar ota-onalar yoki tarbiyachilardan qandaydir alohida bilim yoki kuch talab etmaydi: material vazifasini istalgan uydagi mavjud narsalar, odatda har bir bolaga sotib olinadigan oddiy o'yinchoqlar bajara oladi. Bu yoshdagi bolalar uchun maxsus rivojlantiruvchi o'yinchoqlar ko'p emas: kubiklar, mozaikalar, hisob tayoqchalari, magnitli alifbo, qirqma rasmlar. Ularning ko'pchiligi polifunksional bo'lib, bir yo'la bir necha psixik funksiyalar rivojiga ko'maklashadi.

Psixologik trening mashqlarning nomlari. (qarang ilova-1)

Ikkinchi bobga xulosa

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli, shartli, barqaror bo'ladi. Psixologik korrektsiya ishlarini olib borayotgan psixolog bu narsani nazardan chetda qoldirmasligi lozim. Chunonchi, bola diqqatining xususiyati rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish, qurish, yasash mashg'ulotarida, loy, plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi.

Psixologik diagnostika ishlari mobaynida bola diqqatining muayyan ob'ektga yo'naltirilganligi, to'planganligi, taqsimlanishi bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega yoki ega emasligini, o'z diqqatini boshqara olish yoki kerakli paytda to'plashga intila olishni o'rganishi lozim. Shuningdek, psixolog bolaning xotirasini qay darajada qiziqarli, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatlari darajasini ham diagnostika qiladi.

Psixolog bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlashning sub'ektiv tomonini ham psixologik jihatdan diagnostika va korrektsiya qiladi. Ushbu jarayonlarni psixologik jihatdan korrektsiya qilishda o'qishga nisbatan salbiy munosabat ko'pincha kattalarning qo'rqitishlari oqibatida vujudga kelganligi aniqlanadi. Maktab bilan bog'cha o'rtasidagi uzviy aloqa ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari tashkiliy shakllari, shuningdek, bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va psixik talab kabi yetakchi tomonlari psixologik jihatdan talab qilinadi.

Umumiy xulosa

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l haritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Shunga muvofiq bitiruv –malakavuy ishi uchun tanlab olingan mavzuning nihoyatda dolzarbligini chuqur anglagan holda mavzuni to'la ochib berishga yordam beruvchi aniq rejalar tuzildi va bitiruv –malakavuy ishi shu rejalar asosida yoritildi. Dastlab mavzuning ilmiy apparati tizimli ochildi, maqsad va vazifalar belgilab olindi. Bitiruv-malakaviy ishni ilmiy-amaliy jihatdan yoritilishiga yordam beruvchi test, so'rovnoma, suhbat, intervyu kabi metod va usullardan keng foydalanildi, tajribalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Jumladan: tajribalarimiz maktabgacha ta'lim muasasasida olib borildi, so'rovnoma va testlar o'tkazildi va natijalar tahlil qilindi. O'tkazilgan so'rovnomalarning natijalar tahlillariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan – Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda faqatgina uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashgina emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash davr talabi ekanligini unutmagan holda, maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarini aniqlash yuzasidan o'tkaziladigan psixologik so'rovnomalarni tashkil qilish va olib borish ayni jarayonda maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni nutqi va muloqotchanlik xususiyatlarini korrektsiyalash maqsadga muvofiq;

Uchinchidan- ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish nazarda tutilganligini hisobga olib, maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarini tanlashga qaratilgan ma'lumotlarni maqsadli va tizimli olib borish kerak.

To'rtinchidan- Har bir bolani uning rivojlanishda nuqsonlar kuzatilgan taqdirda maktabgacha yoshdanoq ta'lim shaklini to'g'ri tanlash, yakka ta'sir vositalarini aniqlash uchun chuqur psixologik-pedagogik o'rganish zarurligini ko'rsatadi, bu esa maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarini shakllantirishda psixologlar va pedagoglar hamkorlikda faoliyat yuritishlari maqsadga muvofiq. SHuningdek, hozirgi zamon maxsus pedagogika va psixologiyasida bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni, nuqsonlarni erta aniqlash

va ularni bartaraf etish bunday bolalarni ham hayotda o'z munosib o'rnini topishga inkon yaratish zarurligi haqidagi fikrlarni ta'kidlash mumkin.

Tavsiyalar

Maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Manashu fikrlarni targ'ib qilgan holda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'lindi.

1. Maktabgacha yosh davrida korreksion shakl va metodlarining mazmun, mohiyatini to'la ochib berishga xizmat qiluvchi o'quv-metodik qo'llanmalarni, uslubiy tavsiyanomalarni yaratish kerak ;
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida meyordan chetlashgan, shu jumladan nutqida kamchiligi bor bo'lgan bolalar psixikasidagi o'zgarishlarni korrektsiya qilish uchun maktabgacha ta'lim muassasasida kerakli sharoitlarni yaratish kerak;
3. Korreksion shakl va metodlarining tuzilishini o'rganish uchun korreksion bolalar guruhlarida doimiy ish olib borish kerak;
4. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, va bu jarayonda ilmiy-nazariy seminar, treninglarda faol qatnashish yaxshi va samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”. 2014, 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Toshkent. 1997, 29 avgust. 21 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi”. Toshkent. 1997, 29 avgust. 23 b.
4. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli - jamiyat sari. Toshkent. “Sharq”. 1999, 15 b
5. “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
6. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
7. “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
8. “Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.
9. “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.

10. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi”. – T.: “O’zbekiston”, 2016. – 56 b.

11. Mirziyoev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi”. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 48 b.

12. Mirziyoev SH.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. –T.: “O’zbekiston”. – 2017.– 102 b.

13. Mirziyoev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz”. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.

II. Kitoblar va risolalar

14. Ayupova M.YU. Logopediya “O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati” T.: 2007 y.154 b.

15. Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korrektsiyasi. –T., 2000.y.245 b.

16.Авдеева.Н.Н, Хаймовская.Н.А “Зависимост тира привязанности ребёнка к взрослому от особенностей их взаимодействия”.Toshkent.”O’qituvchi”. 1999, 200 b.

17.Aleshina YU.E. “Individualnoe i semeynoe konsultirovanie”. – Moskva. “Prosveshanie”1999, 145 b.

18.Andreeva T.V. Semeynaya psixologiya. – SPb. 2004, 124 b.

19.Antonov A.I. “Mikrosotsiologiya semi”. – Moskva. “Prosveshanie” 1998, 230 b.

20. Bodalev A.A, Stolin V.V. “Semya v psixologicheskoy konsultatsii”. Moskva. “Prosveshание” 1989.132 b.
21. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma’naviyat. – Toshkent. Sharq. 2000, 111 b.
22. Karimova V. “Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi”. – Toshkent.”Yangi asr avlodi”. 2004, 284 b.
23. Karimova V. “Salomatlik psixologiyasi”. – Toshkent.”Yangi asr avlodi”. 2005, 71 b.
24. Mo’minova L.R., CHicherina Ya.E., Nurkel’dieva D.A. “Dagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey pervix trex let jizni”. T.: RTSSAD, 2007 y.142 b.
25. Mo’minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar “Ona tili” yordamchi mehnat ta’limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: “Artaprint” MCHJ 2005 y.321 b.
26. Nurkeldieva D.A., CHicherina Ya.E. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr 76 avlodi, 2007 y.321 b.
27. Po’latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014 y.215 b.
28. Raxmanova V.S. “Maxsus pedagogika’ T.:“G’.G’ulom” nashriyoti, 2005 y 321 b.
29. Raxmanova V.S., Nurkeldieva D.A. Alohida yordamga muxtoj bolalar ijtimoiy reabilitatsiyasi. T.: RBIMM, 2014 y.325 b.
30. Mo’minova L.R., CHicherina Ya.E., Nurkel’dieva D.A. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey pervix trex let jizni. T.: RTSSAD, 2007 y.362 b.
31. Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari. T.: 2017 y.132 b.

32. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2016y. 325 b.
33. “Bilimdon” dasturi. T.: 2014y.
34. Xurvalieva T. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. –A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006 y.142 b.

III. Gazeta va jurnallardagi maqolalar

35. M. Rustamova, D. Djumanova. “Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda metodik birlashmalarning o’rni” Tavsianoma. 2008y.
36. ”Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy - amaliy anjumanining te’zis va maqolalar to’plami. 2008 y.
- 37.Usmonov A. “Yoshlar – ulkan bunyodkor kuch”. – “Turkiston” 11-12 (15028)-son, 3 fevral, 2007 y.

IV. Internet ma’lumotlari:

WWW.ziyonet.uz.

WWW.psixolog.uz.

WWW.pedagog.uz.

Ilovalar

Ilova-1

1-Mashg'ulot. (korreksion mashg'ulot)

Mavzu: Ayb ish qilganimizda o'zimizni qanday tutushimiz kerak?

Maqsad: irodaviy o'zini boshqarishni rivojlantirish, relaksatsiya qilishga o'rgatish, o'z-o'zini boshqarishni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: oq qog'oz va rangli qalamlar.

Tadqiqotning borishi: Tarbiyachi bolalar bilan suhbatni boshlaydi. Bolalar ba'zida biz nojo'ya xatti-harakatlar qilib qo'yamiz va u atrofimizdagilarni hafa bo'lishiga yoki ranjishiga olib keladi. Ba'zan biz ularni hafa qilmaslik yoki o'zimizni oqlash maqsadida yolg'on gapiramiz va natijada vijdonimiz azoblanadi. Aybga iqrор bo'lish har doim ham yengil emas. Ayting-chi inosnni o'z aybiga iqrор bo'lishiga nima xalaqit beradi? (jazolanish, ishonchni yo'qotish, sevgi, hurmat va h.k) -aybga iqrор bo'lish uchun nima qilish kerak (irodaga zo'r berish, qo'rqvni yengish)

Quyidagi hikmatli so'zlarni qanday tushunasiz?

Aybini yashirsang istimasi oshkor qiladi.

SHirin yolg'ondan achchiq rost yaxshi.

O'yin: Bolalar doira shaklida turib oladilar. Tarbiyachi ularga koptokni otib "Men ayb ish qilganimda....." gapini tugatishini aytadi. Masalan: "Men ayb ish qilganimda onamdan uzr so'rayman" va h.k.

Rasm chizish. "Quvonchli holatlarni rasmda tasvirlash"

Tarbiyachi: Bolalarga quvongan paytlarida qanday ranglar ko'z oldilarida namoyon bo'lishini chizib berishlarini so'raydi. SHundan so'ng ranglar muhokamasi amalga oshiriladi.

Tengdoshim bilan suhbat

“Aziz tegdoshim. Ishlaring yaxshimi? O’qishlaringchi?.

Bugun hech kimni hafa qilmadingmi?.

Senchi seni hafa qilishmadimi?.

Juda yaxshi. Senga bir maslahatim bor. Hayotimizda ba’zan noqulay vaziyatlarga tushamiz va aldashimizga to’g’ri keladi, kimni aldashga to’g’ri kelgan paytda ham irodangga zo’r ber, o’z xislaringni boshqar, birovni yoki o’z yaqinlaringni aldama, chunki u bir kun oshkor bo’ladi va bunday vaziyatda o’zing noqulay holatda qolishing mumkin. O’z-o’zingni noaorat qilishni o’rgan”.

Nazorat guruhi (katta guruh)

Tajriba guruhi (tayyorlov guruh)

Madina

Alisher

Farruh

Doston

Nodir

Bobur

Asqar

Azamat

Bobomurod

Ali

Murod

Abror

Sarvinoz

Rayhona

Mavluda


Jahongir


Shohjahon

Mahliyo

Shoira

Amina





Yuqoridagi trening mashg‘ulotlardan olib borilga nazorat va tajriba guruhlarida bolalarning o‘zini o‘zi nazorat qilish xususiyatlari tizimlashgan holatga keldi.

Ilova-3

2-mashg'ulot (korreksion mashg'ulot)

Mavzusi: Ayb ish qilganimizda o'zimizni qanday tutushimiz kerak?

Maqsad: bolalarning qilayotgan ishlariga javob berishga o'rgatish, salbiy vaziyatlardan o'zi uchun ijobiy bo'lgan jihatlarni topishga harakat qilish.

Kerakli jihozlar: oq qog'oz va rangli qalamlar.

Tadqiqotning borishi: Tarbiyachi bolalar bilan suhbatni boshlaydi.

Suhbat. "Qachon biz boshqalarni xafa qilamiz?" Bolalar, hozir har biringiz hayotingizda biror bir kishini hafa qilgan vaziyatingiz haqida gapirib bering.

Undan so'ng muhokama uchun savollar:

-boshqalarni hafa qilishimiz yaxshimi?

-hafa bo'lgan odam o'zini qanday his qiladi?

-ustozlarimiz, ota-onalarimizni hafa qilganmizmi? Bu to'g'rimi?

O'yin: Bolalar doira shaklida turib oladilar. Tarbiyachi ularga koptokni otib "Men hafa qilmayman....." gapini tugatishini aytadi. Masalan: "Men ustozimni hafa qilmayman" va h.k.

Rasm chizish. "Xafa bo'lgan kishini rasmini chizish" Rasmlar chizib bo'lingandan keyin birma-bir muhokama qilinadi.

Tengdoshimga nasihat:

O'z aybingiz va xatoingizni tan olishga o'rganing, hafa qilgan odamingizni vaqtida kechirim so'rashni va ruhiyatini ko'tarishni biling.

Agar juda jahlingiz chiqqan bo'lsa yostig'ingizni olingda yaxshilab mushtlab uni uring, g'azabingiz chiqadi.

O'zingizni yaxshi xis qilish uchun hobbingiz bilan shug'ullaning.

Nazorat guruh (katta guruh)

Indira

Fazilat

Mahbuba

Malohat

Abdullaziz

Umar

Dilmurod

Yulduz

Sevara

Feruza

Tajriba guruh (tayyorlov guruh)

Nazarbek

Sevinch

Kamoladdin

Ibrohim

Lobar

Shaxzoda

Shahlo

Ozodbek

Ulug'bek

Muzaffar

